



BOLANI MAKTABDA O'QISHGA AQLIY VA AXLOQIY IRODAVIY TAYYORLIGI

*Andijon davlat pedagogika instituti
talabasi Dilshodbekova Mohizoda*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15258254>

Annotasiya. Maqolada bolaning maktabga aqliy va axloqiy-irodaviy tayyorgarligi yoritiladi. Aqliy tayyorgarlik bilish qobiliyatlarini, axloqiy-irodaviy tayyorgarlik esa xulq-atvor va mustaqillikni o'z ichiga oladi. Oilaviy muhit va tarbiyaning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Akademik intizom, zamonaviy texnologiyalar ta'lim, madaniy qadriyatlar, Maktabga borish bolaning hayotida muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayonda bolaning nafaqat bilish va o'rganish qobiliyatlari, balki uning axloqiy va irodaviy sifatleri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola ma'lum darajada aqliy rivojlanish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bolada irodaviy barqarorlik va axloqiy qadriyatlarning shakllanishi ham maktab hayotida muhim rol o'ynaydi.

Aqliy tayyorgarlik bolaning bilim olishga tayyorligini anglatadi. Bu nafaqat o'qish, yozish va hisoblash qobiliyatlari, balki atrof-muhitni anglash, tafakkur qilish, mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Bola ma'lumotlarni eslab qolish, savollarga javob bera olish va muammolarni hal qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, nutq rivoji ham katta ahamiyatga ega. Bola o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashi, oddiy gaplarni shakllantira olishi, atrofda odamlar bilan erkin muloqot qila olishi kerak. Bolani maktabga o'qishga aqliy tayyorligi. Bolaning maktabga borishi uning hayotida yangi bosqich hisoblanadi. Bu jarayon boladan faqatgina yozish va o'qishni bilishni emas, balki tafakkur qilish, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish kabi ko'nikmalarni ham talab etadi. Maktabga qabul qilinishidan oldin bola aqliy jihatdan yetuk bo'lishi, ya'ni muayyan bilish, tushunish va fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak. Bola hayvonlar, o'simliklar, fasllar, ranglar, shakllar, vaqt tushunchalari haqida asosiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu bilimlar unga maktab dasturini o'zlashtirishda yordam beradi.

Axloqiy tayyorgarlik. Maktab muhitiga moslashish uchun bola axloqiy jihatdan ham tayyor bo'lishi lozim. Bu esa bolada jamiyat qoidalariga rioya qilish, odob-axloq me'yorlarini tushunish va unga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. Bola kattalarni hurmat qilish, do'stlari bilan yaxshi munosabatda bo'lish, muomala madaniyatiga ega bo'lish, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his qilish kabi fazilatlarini o'zlashtirishi zarur

Irodaviy tayyorgarlik. Bolaning irodaviy jihatdan tayyorligi uning sabr-toqatli, mehnatsevar, qat'iyatli va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga intila olish qobiliyatini anglatadi. Maktabda muvaffaqiyat qozonish uchun bola muayyan tartib-intizomga rioya qilishi, o'qish jarayonida diqqatni jamlashi, berilgan topshiriqlarni oxirigacha bajarishi kerak. Bola qiyinchiliklarni yengish, har qanday sharoitda o'zini tuta bilish, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan qo'yilgan talablarni bajara olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim..

Axloqiy tayyorgarlik bolaning sinfdoshlar, o'qituvchilar va boshqa insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishini belgilaydi. Bu tayyorgarlik bolaga o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, jamiyat qoidalariga moslashish va mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda asosiy rol o'ynaydi. Ular bolaning aqliy, axloqiy va irodaviy jihatdan rivojlanishiga sharoit yaratishlari kerak. Bolaga yangi bilimlarni o'rganishda yordam berish, muloqot madaniyatini shakllantirish, mehnatsevarlik va mustaqillikni targ'ib qilish ota-onalarning vazifalaridan biridir.

Aqliy tayyorgarlik bolaning fikrlash qobiliyati, xotira, diqqat, nutq rivoji va bilim darajasini o'z ichiga oladi. Bola atrof-muhitni tushunishi, savollarga javob bera olishi, oddiy matematik va mantiqiy masalalarni hal qila bilishi ilohim Axloqiy tayyorgarlik esa uning odob-axloq qoidalariga



rioya qilishi, mas’uliyatni his qilishi, jamoadagi qoidalarga moslashishi, mehribonlik, adolat, halollik kabi insoniy fazilatlarni o‘zida shakllantirishini anglatadi. Bu ko‘nikmalar bolaning o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan yaxshi munosabat o‘rnatishiga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam bberadi

Bog‘cha, tarbiyachilar va pedagoglarning ham bu jarayonda o‘rni katta Shunday qilib, bola aqliy, axloqiy va irodaviy jihatdan to‘liq shakllanganda, u maktab hayotiga oson moslashadi va ta’lim jarayonida muvaffaqiyat qozonadi. Shu sababli, ota-onalar, tarbiyachilar va o‘qituvchilar bu tayyorgarlikka jiddiy e’tibor qaratishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son [Farmoni](#)
2. Jabborova Malohat “TALABALAR AKADEMIK O‘ZLASHTIRISHINING NAZARIYMETODOLOGIK TALQINI” Образование и инновационные исследования (2023 год №5)
3. Iminova, D. N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. Science and Education, 2(1), 301-303. <https://orcid.org/0009-0001-1507-7735> ORCID